

Andijon viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 234 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 134 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-may oyilarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 188,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-may oyilariga nisbatan 107,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 880,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 10 307,7 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 692,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 707 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 676 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-may oyilarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 009,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 4 894,1 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 97,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Xonobod (109,2 %) shaharida, Andijon (106,2 %) tumanida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 217 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 215 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-may oyilarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 387,7 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: X.Toxirov Tel: +998742288000 (6090)	Ijrochi: N. Usmanova Tel: +998742288000 (6041)	Manzil: 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
--	--	--	---